




2020- yil yanvar-dekabr



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi


## Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

### Dastlabki ma'lumotlar

- 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **48,3 %**ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **17,4** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **8331** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu 2019- yilning shu davriga nisbatan **86,1** foizni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 3110 ta, sanoatda 1513 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1425 ta, yashash va ovqatlanishda 617 ta, qurilishda 568 ta tashish va saqlashda 262 ta tashkil etilgan.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	32602	40223	7621
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	9671	8331	-1340
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	49,8	48,3	-1,5
Sanoat	%	21,6	20,8	-0,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	95,5	93,6	-1,9
Investitsiya	%	41,7	40,8	-0,9
Qurilish	%	79,6	80,0	0,4
Chakana savdo	%	79,9	76,9	-3
Xizmatlar	%	70,5	69,3	-1,2
Yuk tashish	%	27,9	26,8	-1,1
Yuk aylanmasi	%	59,4	59,0	-0,4
Yo'lovchi tashish	%	89,6	92,3	2,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,0	96,8	0,8
Eksport	%	29,7	27,8	-1,9
Import	%	48,3	45,8	-2,4



2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %da

**YaHM**  
48,3%

**Savdo**  
76,9%

**Sanoat**  
20,8%

**Qurilish**  
80,0%

**Investitsiya**  
40,8%

**Export**  
27,8%

**Xizmatlar**  
69,3%


**Import**  
45,9%

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>9671</b>	<b>8331</b>	<b>-1340</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	293	250	-43
Olmalik	359	355	-4
Angren	610	468	-142
Bekobod	319	225	-94
Ohangaron	196	213	17
Chirchiq	464	400	-64
Yangiyo'l	281	259	-22
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	291	319	28
Ohangaron	246	230	-16
Bekobod	229	235	6
Bo'stonliq	482	378	-104
Bo'ka	292	333	41
Quyichirchiq	286	354	68
Zangiota	1363	918	-445
Yuqorichirchiq	742	395	-347
Qibray	378	666	288
Parkent	204	311	107
Piskent	614	212	-402
	296	614	318
Chinoz	547	273	-274
Yangiyo'l	692	448	-244
Toshkent	204	475	271



## 2020- yil yanvar-dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota tumani – 11,0 %, Qibray tumani – 8,0 %, O'rta Chirchiq tumani - 7,4 %, Toshkent tumani – 5,7 %, Angren shahar – 5,6 %, Yangiyo'l shahar – 5,4 %, Chirchiq shahar – 4,8 %, Yuqori Chirchiq tumani – 4,7 % hissalariga to'g'ri keldi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019- y. yanvar-dekabr	2020- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
<b>Jami</b>	<b>9671</b>	<b>8331</b>	<b>-1340</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>1048</b>	<b>1425</b>	<b>377</b>
<b>Sanoat</b>	<b>2039</b>	<b>1513</b>	<b>-526</b>

<b>Qurilish</b>	892	568	-324
<b>Savdo</b>	3649	3110	-539
<b>Tashish va saqlash</b>	336	262	-74
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	857	617	-240
<b>Axborot va aloqa</b>	102	143	41
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	103	122	14
<b>Boshqa faoliyat turlari</b>	645	571	-74

**Ma'lumot uchun:** 2020- yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




**Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
<b>Zangiota tumani</b>	1363	918	-445
<b>Qibray tumani</b>	742	666	-76
<b>O'rta Chirchiq tumani</b>	614	614	0
<b>Toshkent tumani</b>	692	475	-217
<b>Angren shahar</b>	610	468	-142
<b>Yangiyo'l tumani</b>	547	448	-99
<b>Chirchiq shahar</b>	464	400	-64
<b>Yuqori Chirchiq tumani</b>	487	395	-92
<b>Bo'stonliq tumani</b>	482	378	-104
<b>Olmaliq shahar</b>	359	355	-4

2020- yilning yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Zangiota tumanida –918 tani tashkil etdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



2020- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 17,4 birlikni tashkil etdi.



## Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra\*




2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ohangaron shahrida 19,1 birlikni, Qibray tumanida 18,3 birlikni, Zangiota tumanida 16,5 birlikni, O'rta Chirchiq tumanida 16,0 birlikni, Toshkent tumanida 15,9 birlikni, Yuqori Chirchiq tumanida 15,5 birlikni, Olmaliq shahrida 14,8 birlikni tashkil etgan. Chirchiq shahrida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 6,1 birlikka to'g'ri keldi.

\* *Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*



## 2020- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*




\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)





**2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \***



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Ohangaron shahrida 10,3 birlikni, Nurafshon shahrida 5,1 birlikni, Zangiota tumanida 4,6 birlikni, Yangiyo'l shahrida 4,2 birlikni, O'rta Chirchiq tumanida 4,0 birlikni, Qibray tumanida 3,3 birlikni, Quyi Chirchiq tumanida 3,2 birlikni, Oqqo'rg'on tumanida 3,0 birlikni, Yuqori Chirchiq tumanida 2,8 birlikni, Olmaliq shahrida 2,7 birlikni, Toshkent tumanida 2,6 birlikni, Bo'ka tumanida 2,6 birlikni, Angren shahar va Ohangaron tumanlarida esa 2,4 birlikni tashkil etdi.



## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

**Eng yuqori ko'rsatkich**

- Ohangaron shahri
- 19,1 birlik.

**O'rtacha ko'rsatkich**

- Angren shahri
- 14,6 birlik.

**Eng past ko'rsatkich**

- Chirchiq shahri
- 6,1 birlik.



## Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, %da

2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 48,3 %ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrida 49,8 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

57,7%

2018- y.

49,8%



2019- y.

48,3%

2020- y.



## Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



## 2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%)da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>20,8</b>	<b>80,0</b>	<b>69,3</b>	<b>40,8</b>
<i>shaharlar:</i>				
<b>Nurafshon</b>	18,4	95,5	12,2	29,2
<b>Olmaliq</b>	1,2	63,7	86,9	3,0
<b>Angren</b>	26,5	80,8	91,2	66,9
<b>Bekobod</b>	63,2	70,5	94,1	62,8
<b>Ohangaron</b>	3,9	83,2	93,5	28,6
<b>Chirchiq</b>	19,8	81,6	70,1	26,6
<b>Yangiyo'l</b>	50,0	66,9	89,3	58,8
<i>tumanlar:</i>				
<b>Oqqo'rg'on</b>	26,7	94,8	98,4	24,7

<b>Ohangaron</b>	78,2	77,2	88,8	87,8
<b>Bekobod</b>	69,8	80,2	97,3	31,2
<b>Bo'stonliq</b>	28,2	88,5	81,1	33,9
<b>Bo'ka</b>	95,5	95,8	98,5	53,2
<b>Quy Chirchiq</b>	27,0	88,0	96,9	74,9
<b>Zangiota</b>	23,9	68,0	87,3	30,5
<b>Yuqori Chirchiq</b>	63,9	80,9	92,4	64,9
<b>Qibray</b>	91,3	72,2	57,6	55,1
<b>Parkent</b>	55,5	80,3	94,0	69,8
<b>Piskent</b>	61,2	94,0	98,4	69,5
<b>O'rta Chirchiq</b>	73,7	76,8	88,3	80,9
<b>Chinoz</b>	63,7	84,8	95,8	58,9
<b>Yangiyo'l</b>	68,8	86,2	85,6	42,2
<b>Toshkent</b>	55,7	95,0	87,8	81,4


Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:



2020- yil


yanvar-dekabr

oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **137,3** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **27,8** %ini tashkil etdi.






## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'ka tumanida – 100 %, Parkent tumanida – 99,9 %, Bekobod tumanida – 99,7 %, Ohangaron tumanida – 99,5 %, Yuqori Chirchiq tumanida – 99,4 %, Piskent tumanida – 99,1 %, eng past ko'rsatkich Olmalik shahrida – 0,6 %ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar- dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 592,8 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 45,8 %ini tashkil etdi.





## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bo'ka tumanida– 100,0 %, Quyi Chirchiq tumanida – 100,0 %, Nurafshon shahrida – 99,8 %, Parkent tumanida – 99,7 %, Bekobod tumanida – 99,5 %. Eng past ko'rsatkich Olmaliq shahrida – 1,8 %ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 13 457,9 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



## 2020- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Ohangaron shahri (2292,6 mlrd. so'm), Zangiota tumani (1449,2 mlrd. so'm), Angren shahri (1285,8 mlrd. so'm), Toshkent tumani (986,1 mlrd. so'm) va Qibray tumani (956,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Oqqo'rg'on tumanida (189,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 21,6 foizni tashkil etdi.



## 2020- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bo'ka tumani (95,5%), Qibray tumani (91,3%), Ohangaron tumani (78,2%), O'rta Chirchiq tumani (73,7%), Bekobod tumani (69,8%), Yangiyo'l tumani (68,8%), Yuqori Chirchiq tumani (63,9%), Chinoz tumani (63,7%), Bekobod shahri (63,2%) va Piskent tumani (61,2%) tashkil etdi. Olmaliq shahrida (1,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 17 648,1 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 83,7% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 98,9 foizni tashkil qildi.






## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumanida (2 990,6 mlrd. so'm), Olmaliq shahrida (1 241,1 mlrd. so'm), Bo'stonliq tumanida (1 234,4 mlrd. so'm), Qibray tumani (1 064,6 mlrd. so'm), Yangiyo'l shahrida (978,1 mlrd. so'm) va Chirchiq shahrida (872,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5542,1 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 80,0 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,8 foizni tashkil qildi.




## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Zangiota (622,2 mlrd. so'm), Qibray (504,5 mlrd. so'm), Toshkent (411,6 mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq (383,2 mlrd. so'm), Bo'stonliq (310,4 mlrd. so'm), Parkent (310,0 mlrd. so'm) tumanlarida hamda Chirchiq shahrida (253,2 mlrd. so'm) qayd etildi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 11 559,4 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 69,3%ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,8 % oʻsish kuzatildi.



## 2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Zangiota tumani (1 015,3 mlrd.soʻm), Qibray tumani (986,8 mlrd.soʻm), Chirchiq shahri (809,7 mlrd.soʻm), Olmaliq shahri (751,7 mlrd.soʻm), Angren shahri (733,1 mlrd. soʻm), Toshkent tumani (694,4 mlrd. soʻm) va Boʻstonliq tumani (641,7 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 26,8 foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 59,0 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 foizni tashkil qildi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 92,3 foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 89,2 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,8 foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 89,5 foizni tashkil qilmoqda.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1 578** ta respondentlar ishtirok etdi.




## 2020- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,1 %ni (128 ta), sanoatda – 21,1 %ni (333 ta), qurilishda – 8,6 %ni (136 ta), savdoda – 35,5 %ni (560 ta), xizmatlar sohasida – 26,7 %ni (421 ta) tashkil etdi.



2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslanganda qishloq, o'rmon va baliqchilik 27,3 punktga, sanoatda 1,7 punktga, qurilishda 16,7 punktga, savdoda 57,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 17,6 punktga, sanoat sohasida 5,6 punktga, qurilishda 12,2 punktga, savdo sohasida 70,0 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, %da**


**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

**Sanoat**

**Qurilish**

**Savdo**

**Xizmatlar**




■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 13,3 punktga, sanoat korxonalarida 5,7 punktga, qurilish korxonalarida 18,3 punktga, savdo sohasida 68,2 punktga, xizmatlar sohasida 5,6 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi pasaygan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 0,7 punktga, qurilishda 36,0 punktga, savdoda 45,1 punktga oshdi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, %da**


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar









2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **156** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 28 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 17,9%), sanoat korxonalarini – 28 ta (17,9%), qurilish – 11 ta (7,1%), savdo – 59 ta (37,9%) va xizmatlarda – 30 ta (19,2%) subyekt ishtirok etdi.




**2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da**






**2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da**



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, xizmatlar sohasida 133,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



**2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, %da**


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar




■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 16,7 punktga, sanoatda 11,1 punktga oshdi, savdoda 5,0 punktga, xizmatlar sohasida 7,1 punktga kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 85,7 punktga savdoda 37,0 punktga, xizmatlar sohasida 7,7 punktga oshdi, qurilish sohasidagi korxonalarida esa 33,3 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi



## 2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

